

О'SPIRINLIK DAVRIDA IJTIMOYIY INTELEKT SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI IJTIMOYIY- PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Rustamova Go'zal Xolmuhammad qizi
Namangan davlat universiteti
Psixologiya (faoliyat turlari) yo'nalishi
ikkinchi bosqich magistranti

Anatatsiya: Mazkur maqolada, o'spirinlik davridagi shaxslarning ijtimoiylashuvi, shuningdek ijtimoiy intellekt xususiyatlarining shakllanishi yoritib o'tilgan. Ijtimoiy intellekt sabab inson jamiyatga singib boradi.

Abstract: This article describes the socialization of individuals during adolescence and the formation of social intelligence. Due to social intelligence, a person is integrated into society.

Аннотация: В данной статье описывается социализация личности в подростковом возрасте и формирование социального интеллекта. Благодаря социальному интеллекту человек интегрируется в общество.

Kalit so'zlar : intellekt, shaxs, ijtimoiylashuv, intellekt koefitsenti (IQ)

Keywords: intellect, person, socialization, intelligence quotient (IQ)

Ключевые слова: интеллект, человек, социализация, уровень интеллекта (УИ)

KIRISH

Inson jamiyatda yashar ekan jamiyat ichiga singib boraveradi. Bugungi globallashuv jarayonida informatsiya oqimining haddan tashqari ortishi, urbanizatsiya jarayonining tobora jadallashuvi, integratsiyaning kuchayib borishi har bir insondan mavjud sharoitlarga moslashishda ruhiy egiluvchanlik talab qilmoqda. Bunda shaxs intellektining rivojlanish darajasi, uning aqliy imkoniyatlari regulyatori, ahloqiy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi.

Asosoy qism: O'spirinlik davrida o'quv faoliyatining murakkablashishi, ularning yangi jamoada tutgan o'rni ulardan ko'p narsa talab qiladi. O'spirinlarning maktab hayotida, oilada tutgan mavqei o'zgaradi, ya'ni o'zidan kichiklarga nisbatan boshliq, tashkilotchi va tarbiyachi bo'lish talab qilinadi. 18 yoshda kattalikka erishadi. Bugungi kunda jamiyatda insonning ma'naviyat bilan sug'orilgan intellektual xususiyatlari har qachongidanda ko'proq qadrlana boshlandi. Bu xususiyat o'z navbatida insondan jamiyat rivojiga hissa qo'shadigan yaratuvchanlik hamda tarbiyaviylikka asoslangan shaxs sifatlarining qadri ortib borayotganligi bilan izohlash mumkin. Ijtimoiy persepsiya (Dj.Bruner,1947), ya'ni insonning-inson tomonidan idrok etilishi ko'p

jihattan sotsial intellekti darajasiga bog‘liqdir. Ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismida shaxsning guruhga, jamiyatga ijtimoiy

adaptatsiyasi uning sotsial intellektiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Ijtimoiy intellekt - bu insonga boshqalar bilan muvaffaqiyatli munosabatda bo‘lishga yordam beradigan bilim, ko‘nikma va qobiliyatdir. O‘zimiz va boshqalarning xatti-harakatlarini tushunish, vaziyatga qarab harakat qilish qobiliyati shular jumlasidandir. Psixologiyada intellektga berilgan ta‘rif xilma-xil. Eng ko‘p tarqalgani bu fransuz olimi Jan Piaje ta‘rifi. U ko‘p yillik tadqiqotlardan kelib chiqib, intellektni insonning masalalar yecha olish qobiliyati, degan xulosaga kelgan. Rossiya Fanlar akademiyasining muxbir a‘zosi, psixologiya fanlari doktori Dmitriy Ushakovning yozishicha, zamonaviy dunyoda mehnat taqsimoti kuchayib bormoqda va shuning uchun individual yutuqlar tobora jamoaviylikka aylanib bormoqda. Muvaffaqiyatga erishish uchun esa, bugungi kunda o‘z sohangizning professional bo‘lishning o‘zi yetarli emas. Shuningdek, siz odamlar bilan munosabatlarni yaxshilash, o‘zingiz g‘oyalar yaratish, ularni jamiyatda targ‘ib qila olishingiz kerak. Misol uchun, takliflarni ilgari surishdan qo‘rqmang va murakkab narsalarni oddiy so‘zlar bilan tushuntirishni o‘rganing. Ijtimoiy intellektda intuitsiya va shaxsiy sifatlar asosiy rolni o‘ynaydi. Aslida, ijtimoiy intellekt insonning odamlarni va kundalik vaziyatlarni qanchalik tushunishining ko‘rsatkichi hisoblanadi. Odatiy hayotda bunday ko‘nikmalarni xushmuomalalik va sog‘lom fikrlash deb atashadi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, ijtimoiy intellekt yuqori aqliy daraja bilan o‘lchanmaydi. Bunga misol qilib esa, Sherlok Holmesni yoki "The big bang theory" serialidagi bosh qahramon Sheldonni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ayniqsa, Sheldon aqliy darajasi eng yuqori insonlardan biri deb hisoblangan bo‘lsa-da, uning ijtimoiy intellekti past deyiladi. Shu sababdan ham u atrofdagilarning tuyg‘ularini to‘g‘ri baholay olmaydi va buning ortidan do‘stlari hamda hamkasblari bilan til topishga qiynaladi. "Ijtimoiy intellekt" tushunchasini birinchi marta 1920 yilda E.Torndaykpsixologiya fanida qo‘llagan. U bu tushuncha yordamida shaxslararo munosabatlarni oldindan ko‘ra bilishlikni tasvirlaydi va uni insonlar o‘rtasidagi munosabatlarga davr nuqtai nazari bilan yondashishni qiyoslaydi. Intellektning quyidagi ikki turiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, abstrakt intellekt - bu abstrakt, verbal va matematik belgilarni tushunish va ularning yordami bilan turli aqliy harakatlarni amalga oshirish qobiliyatini bildiradi, ijtimoiy intellekt - odamlarni tushunish va ular bilan munosabatlarga kirishish qobiliyatidan iborat. Ijtimoiy intellektni o‘lchashga mo‘ljallangan birinchi ishonchli testni yaratgan J.Gilford uni umumiy intellekt omilidan mustasno tarzda va eng avvalo xulq-atvorga oid axborotlarni tushunishi bilan bog‘liq bo‘lgan intellektual qobiliyatlar tizimi sifatida o‘rgangan.

Ijtimoiylashuv so‘ziga berilgan ta‘riflardan eng keng tarqalgani (lot. Socialis — ijtimoiy, jamoaviy) individning jamiyatga kirib borib, undagi hayot uchun zarur

bo'ladigan malaka, rollar, me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtirishidir. Ijtimoiylashuv jarayonida insonlarda jamiyatdagi muloqotning ishtirokchisi bo'lishi uchun kerak bo'ladigan ijtimoiy sifatlar, bilimlar, ko'nikmalar shakllanib boradi. Ijtimoiylashuv ikki tomonlama jarayondir, bir tomondan individning jamiyatga kirib borib, undagi malakalarni o'zlashtirish jarayoni bo'lsa, ikkinchi tomondan, inson faolligi hamda jamiyatdagi faol ishtiroki orqali ijtimoiy aloqalarni o'rnatishdir. Ijtimoiylashuv g'oyasini psixologiya sohasiga kiritgan hamda bu muammoni ijtimoiy Intellekt bu inson va hayvonlarni yangi muhitga moslashishi hisoblanadi. V.SHterni, J.Piaje, D.Veksler va boshqa avtorlar ham ijtimoiy intellektni insonlarni yangi hayotiy sharoitlarga moslashashtiruvchi umumiy qobiliyat sifatida qarashgan. Ular o'z tadqiqotlarida amerikalik minglab maktab o'quvchilarini logityud metodi orqali tadqiq etishgan. Tadqiqot jarayonida, dastlab ularni IQ (intellekt koefitsenti) aniqlab olindi. O'quvchilarni IQ koefitsentiga qarab guruhlariga ajratildilar va 30, 40, 50, 60 yil oralig'ida kuzatishgan. Yillar davomida intellekt koefitsenti yuqori bo'lgan sinaluvchilar hayotda, faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarni ko'rsatishgan. IQ koefitsenti pastroq bo'lgan sinaluvchilar ulardan farqli o'laroq 30 marta kam yutuqlarga erishishgan. Intellektni go'yo qolipga solingan, buyuk kashfiyotlarni yaratmaydigan moslashuvchi qobiliyat sifatida ko'ramiz. Intellektga faqat qaytarish xosdir. Psixologlarning fikricha bu g'oya noto'ridir. Sababi evolyusion rivojlanish nazariyasida insoniyatning antropogenez rivojlanishning asosiy omilini intellektning rivojlanishidadir deb aytib o'tilgan. Olovni o'zlashtirish va qurollar yasash bunga misol bo'la oladi.

Xulosa. Ijtimoiy intellektni quyidagi faoliyatlar orqali rivojlantirish mumkin.

1. O'zingizda ijtimoiy sezgirlikni oshiring. Ego ramkalaringizdan chiqing va odamlarning xulq-atvorini kuzatish va o'rganishni boshlang;
2. Tana tilini o'rganing;
3. Muloqotning kuchli vositasi bo'lgan yuz ifodalari va mimikalarni kuzatib, o'rganishni o'zingizda rivojlantiring;
4. Insonlar kayfiyatini tushunishni o'rganing. O'zingizda aktyorlik qobiliyatini rivojlantiring. Chunki bularning har ikkisi ham ijtimoiy intellektni rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Ushbu qobiliyatning asosiy ko'nikmalaridan biri ham kayfiyatni tushuna olish va vaziyatga moslashishdir;
5. Notiqlik qobiliyatingizni oshiring;
6. "Mafiya", "Monopoliya" kabi "ijtimoiy" o'yinlarni o'ynang.

Agar siz bu tavsiyalar siz uchun emas va sizning ijtimoiy intellektingiz shundoq ham joyida ekanligiga takabburlik bilan ishonsangiz, adashasiz. Ijtimoiy intellektning rivojlanishi cheksiz jarayondir. Chunki bizning hayotdagi vazifalarimiz va

maqsadlarimiz doirasini o'sib bormoqda. Olti oy o'tgach, siz ish joyida ko'tarilishingiz, endi o'rganib qolgan hamkasblaringizdan uzoqlashib boshqa filiallarga o'tishingiz, ish joyingizni o'zgartirishingiz mumkin va bunda atrof muhitingiz tamomila o'zgarib ketadi. Joylashayotgan joyingizda aloqalarni yaxshilash va boshqalar bilan to'g'ri munosabatga kirishishda esa, ijtimoiy intellektning roli katta

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Қодиров Б.Р. Иқтидорлилик ҳақида, Мактаб ва хаёт. 1998-йил 3-сон
2. Rasulov A.I. Psixodiagnostika, O'quv-metodik qo'llanma. Toshkent-2009
3. Гилфорд Дж. Три стороны интеллекта // Психология мышления. Под ред А.М. Матюшкина. М., 1965
4. Ғозиев Э.Ғ. Талабаларни умумлаштириш усулларига ўргатиш ва уларнинг ақлий тараққиёти.- Т.:Ўқитувчи, 1983.
5. Бурлачук Л.Ф. Психодиагностические методы исследования интеллекта. - Киев, 1985.
6. Маджидов, Д. Б., & Шарофиддинов, А. (2017). Социальный интеллект как совокупность способностей, обеспечивающих адаптацию личности в обществе. In *Актуальные вопросы современной психологии* (pp. 22-24).
7. Majidov, J. (2020). СПОРТДАГИ МУЛОҚОТ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ҲОДИСА СИФАТИДА. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (1).
8. Majidov, J. (2021). ВОПРОСЫ ГАРМОНИИ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ О СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ И УДОВЛЕТВОРЕННОСТИ СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНЬЮ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 1(1).
9. Naydarjon J. SHAXS IJTIMOY XIMOYASIZLIGINI OGISHGAN XULQ ATVORGA TASIRINI IJTIMOY PSIXOANALITIK MEKANIZMLARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 9-12.
9. Majidov, J. (2021). НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ЧУВСТВА ОДИНОЧЕСТВА В ПОДРОСТКОВОМ ПЕРИОДЕ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1375>